

D.I.Mendelev nomli Rossiya kimyo-texnologiya universiteti rektori bilan uchrashuv tashkil etildi

// 12.03.2020

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mendelev>



"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida joriy yilning 11 mart kuni D.I.Mendelev nomli Rossiya kimyo-texnologiya universiteti rektori A.Majuga boshchiligidagi delegatsiya a'zolari ishtirokida uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazkur uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "Toshkent shahridagi "D.I.Mendelev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti" Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filialini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan o'quv jarayonlari, olib borilayotgan qurilish va rekonstruktsiya ishlari muhokama etildi.

Uchrashuv davomida "O'zbekimiyosanoat" AJ Boshqaruvi raisi J.Mirzamaxmudov D.I.Mendelev nomli Rossiya kimyo-texnologiya universiteti rektori A.Majuga bilan Filial faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan muzokaralar olib bordi.

Uchrashuv yakunida qarorda belgilangan vazifalarni hamkorlikda amalga oshirishga kelishib olindi.

"O'zbekimiyosanoat" AJ Matbuot xizmati